
Ruboiyot

Umar Xayyom

UMAR XAYYOM (1048—1131)

Ulugʻ faylasuf, shoir, munajjim, matematik va tabib boʻlgan Gʻiyosiddin Abulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopuriy Eronning Nishopur shahrida tugʻilgan. Aniq fanlar sohasida oʻz davrining yagonasi boʻlgan olim tomonidan tuzilgan taqvim, manbalarning yakdillik bilan guvohlik berishicha, amaldagi Grigorian kalendaridan ham aniqroq boʻlgan. Uning riyoziyot, ilmi nujum va falsafaga oid bir qancha asarlari bizgacha yetib kelgan.

Umar Xayyom Nishopur, Balx, Buxoro shaharlarida oʻqiydi. Rivoyatlarga qaraganda Saljuqiylar vaziri Nizomulmulk unga Nishopur hokimligini taklif qiladi. Lekin Umar Xayyom bunga rozi boʻlmaydi. U 1074 yildan boshlab Isfaxon rasadxonasi ishlariga rahbarlik qilib, matematika, astronomiya sohasida tadqiqotlar olib boradi. Uning matematika, falakiyotshunoslik, falsafaga oid bir qancha asarlari va kashfiyotlari maʼlum.

Masalan, 1077 yilda u yunon olimi Evklid kitobiga sharh yozib, butun sonlarning ildizini topish yoʻllarini koʻrsatib beradi. 1079 yilda Xayyom yangi isloh qilingan kalendar ishlab chiqaradi. Bu kalendar Yevropada undan 500 yil keyin qabul qilingan va hozirgi vaqtgacha qoʻllanilayotgan Grigorian kalendaridan ham aniqroq boʻlgan. Shuningdek uning "Risolatul-kavn vat-taklif" ("Koinot va uning vazifalari"), "Risola fil-vujud" ("Borliq haqida risola"), "Risola fi kulliyati vujud" ("Borliq umumiyliigi haqida risola") kabi asarlari ham mashhurdir.

Umar Xayyom oʻzini sira ham shoir deb hisoblamagan. Ruboiylarini ilmiy izlanishlardan charchagan paytida turli dafgarlarning hoshiyasiga bitgan. Qismat oʻyinini qarangi, olim oʻz umrining asosiy qismini sarflagan fanning turli sohalaridagi buyuk kashfiyotlari bir chekkada qolib, u ikkinchi darajali hisoblagan ruboiylari Xayyom nomini dunyoga taratdi.

Umar Xayyomni dunyoga mashhur qilgan uning ruboiylaridir. Umar Xayyom shoir boʻlmagan, lekin hayot haqida baʼzi mulohazalarini 4qatorlik sheʼr qilib qogʻozga tushirib qoʻyavergan. XVIII asrga qadar uning ruboiylari haqida tadqiqotlar olib borilmagan. U haqda dastlab Oksford universiteti professori Tomas Gayd, undan soʻng Fon Gomer Birgestel va Meme Nikoloslar tadqiqot olib borishgan. 1859 yili ingliz shoiri va tarjimoni Edvard FitzJerald Umar Xayyomning 70 ruboiysini tarjima qilib eʼlon qilgandan soʻng, bu sheʼrlar juda mashhur boʻlib ketgan va ingliz tilidan jahonning boshqa tillariga ham tarjima qilingan.

Xayyom ruboiylarining soni turli maʼlumotlarda 11 tadan 1200 tagacha ekanligi aytiladi. Xayyomga nisbat beriladigan ruboiylarni u yozganligiga ham turli shubhalar mavjud. Ayniqsa, zamondoshlari "katta ilm egasi, mutaffakir, taqvodor zot edi" deb ulugʻlagan shoirning mayxoʻrlik, yengil hayot, aysh-ishrat, kufr, dahriylik mavzularidagi ruboiylari ishonchsizdir. Bunday ruboiylar Islomga qarshi baʼzi toifalar tomonidan ataylab toʻqib